



MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARINING AHAMIYATLI JIHLTLARI

Olimjonova Gavkharoy

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalaaar
instituti “Iqtisodiyot” kafedrasasi assistenti

ogavxaroy87@gmail.com

Raxmonova Zebo

“Ipakchilik va tutchilik” fakulteti “Zooinjeneriya
(Asalarichilik)” ta'lim yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Received: 17th October 2023
Accepted: 18th October 2023
Online: 19th October 2023

KALIT SO'ZLAR:

*Integratsiya, jahon
iqtisodiyoti, innovatsiya,
fan-texnika taraqqiyoti,
infratuzilma, klaster, jahon
iqtisodiyoti, diversifikatsiya.*

ANNOTATSIYA:

*Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarini
globallasuvi va chuqurlashuvi agrar biznesni
ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, uning
bozordagi tashqi imkoniyatlari va havf-
xatarlarini ham har tomonlama chuqur
o'rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu
imkoniyatlardan biri agrosanoat guruhini
klaster modeli bo'yicha tashkil etishdir.*

*Bugungi kunda dunyo bozorlarida gilos,
o'rik, olxo'ri, anor, uzum, bodom, sitrus mevalar
kabi mahsulotlarga talab yuqori va ushbu
mahsulotlar eksport tushumining asosiy qismini
tashkil etmoqda.*

Kirish. Agrar tarmoqqa innovatsiyalarni keng tatbiq qilish, zaminimizda yetishtirilayotgan xom ashyoni o'zimizda qayta ishlashni chuqurlashtirish bugungi zamon talabidir. Shu bois O'zbekistonda keyingi paytda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e'tibor qaratilayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-son Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida 2019 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4549-son qarori qabul qilindi.. Ushbu qarorda keltirilgan vazifalar bugungi kunda qishloq xo'jaligida meva va sabzavot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkiliy-iqtisodiy

mexanizmlarini takomillashtirish asosida ularda boshqaruvning eng zamonaviy usullarini qo'llash, yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini xalqaro talablarga moslashtirish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni imzolandi va ushbu farmon bilan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan 3 bo'limining 30-maqsadida: "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" vazifalari belgilangan bo'lib, bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida "Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda mevasabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSH dollariga oshirish" masalasi qo'yildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarining hajmiga har bir mamlakatda tashkil topgan ijtimoiy iqtisodiy va xo'jalik yurtish munosabat-lari tizimi hamda mavjud tabiiy jug'rofik omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, yirik qishloq xo'jaligi yer maydonlariga ega mamlakatlarda korxonalar hajmi yirik, cheklangan yer resurslariga va yuqori aholi zichligiga ega mamlakatlarda esa kichik bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, Kanadada bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 215 gektar, AQShda 180 gektar, Rossiyada 44 gektar, Fransiya, Daniya va Shvetsiyada 27-30 gektar, Germaniya, Belgiya, Ispaniya va Finlyandiyada 12-16 gektar, Gretsiya, Italiya va Portugaliyada 4-6 gektar yer to'g'ri keladi. Ishlab chiqarishning har bir xo'jalikdagi hajmini belgilash shu xo'jalikdagi mavjud iqtisodiy va tabiiy sharoilarni hisobga olgan holda hal etiladi.

Mevachilikni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarmog'i sifatida asosiy vazifasi aholini ho'l mevalar, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashdan iborat. Mevachilik fan sifatida meva va rezavor-meva ekinlarining tuzilishi, o'sish, ko'payish va hosil berish qonuniyatlarini, tashqi muhit omillariga munosabati va biologiyasini o'rganish asosida yuqori, sifatli hamda muttasil hosil olish texnologiyasining nazariy asoslari va amaliy usullarini ishlab chiqishdan iborat. Mevachilik va bog'dorchilik tushunchalari bir-biriga o'xshatiladi. Aslida bog'dorchilik keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, mevachilik,

uzumchilik, tsitruschilik, rezavor mevachilik, manzarali bog'dorchilik va gulchilik kabilarni oz ichiga oladi. Mevachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati benihoya katta. Meva va rezavor-mevalar tarkibida odam organizmi uchun zarur bo'lgan shakar, organik kislotalar, oqsillar, yog'lar, oshlovchi, pektin, aromatik moddalar, kolloidlar, mineral tuzlar, fermentlar, vitaminlar manbai.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda aholi jon boshiga kuniga kamida 330-400 g yoki yiliga 115-120 kg meva, shundan 15 kg uzum va 10 kg rezavor-meva yetishtirilishi kerak. Lekin, bugungi kunda aholi jon boshiga yil davomida 94 kilogramm meva, shundan 12 kilogramm uzum ishlab chiqarilmoqda. Bu ko'rsatkich AQSh, Italiya, Ispaniya, Frantsiya kabi mamlakatlarda 120-230 kilogrammni tashkil etmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlar fermer xo'jaliklarini tashkil etish, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda ishlab chiqarish infratuzilmasini to'g'ri tashkil etish, kooperatsiya tizimini yaratish, moddiy-texnik ta'minoti, davlat tomonidan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash tadbirlarini takomillashtirish bo'yicha bir necha o'n yillik, xattoki yuz yillik tajribaga ega.

Amerika va Kanada fermer xo'jaliklarining tajribalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchli. Chunki birinchidan, ularning iqlim sharoiti bo'lsa, ikkinchidan yevropadan farqli ularoq, Shimoliy Amerikada qishloq xo'jalik tizimini shakllanish jarayoniga proteksionizm siyosati hamda eskicha yer munosabatlariga qisman ta'sir etgan.

Amerika qo'shma shtatlarining qishloq xo'jaligidagi asosiy xususiyatlaridan biri fermer xo'jaliklarining xajmi turli xil bo'lishidadir: kichik fermer xo'jaliklari (sotuv xajmi 5 ming dollargacha)dan super fermerlar (sotuv xajmi 500ming dollar va unidan yuqori). Vaholanki, kichik fermer xo'jaliklarida yalpi mahsulot sotuv xajmi 5dan to 40 ming dollarni, o'rta fermer xo'jaliklarida 40dan to 250 ming dollarni, yirik fermer xo'jaliklarida 250dan to 500 ming dollarni tashkil etadi. Eng yirik fermer xo'jaliklari jami fermer xo'jaliklarining 4,1 foizni tashkil etgani bilan, mamlakatda ishlab chiqarilgan jami qishloq xo'jalik mahsulotlarini 50 foizga yaqinini tashkil etadi.

Izrailda 411 ming gektar xaydaladigan yer maydoni bo'lib, umumiy yer maydonini 20 foizini tashkil etadi. Shundan 7 ming gektari yerdan (umumiy xaydaladigan yerning 2 foizi) organik dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. 45 ming gektar yerda ochiq ekin maydonida sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. Teblitsada sabzavot yetishtirishda jami xarajatni

xarajatni 10 foizini moliya vazirligi, 30 foizini Izrail milliy fondi tomonidan moliyalashtiriladi. Bu mamlakatda xo'jalik yuritish tizimi qo'yidagicha: kubitslar (kollektivные коммуна) – jami 269 kubbits bo'lib, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotini 33 foizini , moshavlar kooperativные товарищество, индивидуальные семейные фермы)- jami 450 ta bo'lib, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotini 50 foizini qolganlari 2,5-6 gektar yer maydoniga ega fermer xo'jaliklari mavjud.

Jaxon adabiyotlarida e'tirof etilishicha, AQSh, Kanada, Shvetsiya, Daniya, Yaponiyada qishloq xo'jalik mahsulotlarini oilaviy fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Portugaliya Daniyada fermer xo'jaliklar kooperativ xarakatlanadi. Finlandiyada kooperatsiya yaxshi rivojlangan bo'lib, fermer xo'jaliklari faoliyatini olib borishga yordam beradi. Polshada mayda fermerchilik xarakati yo'lga qo'yilgan bo'lib, tor ixtisoslashuvga asoslangan. Daniyada konsultatsiya markazlari faoliyati rivojlangan bo'lib, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadi Konsultatsiya xizmatini 10 foizini davlat, 90 foizini fermer xo'jaligi moliyalashtiradi. Yangi Zenlandiyada fermer xo'jaliklari sanoatlashtirilgan bo'lib, qishloq xo'jaligiga yangi va innovatsion texnologiyalar joriy etilgan Bu mamlakatda davlat fermer xo'jaliklariga dotatsiyalar ajratmaydi. Shu bilan birga narx siyosatiga davlat aralashmaydi. Fermer xo'jaliklari erkin bozor sharoitida o'z faoliyatini olib boradi.

Xulosalar. O'zbekistonda mevazorlar, ayniqsa, intensiv usuldagi bog'lar yetarlicha tashkil etilmayotgani, bog' va tokzorlar yaroqsiz holatga kelib qolgani sababli ularning iqtisodiy samaradorligi o'ta past darajada bo'lib, qator tumanlarda minglab gektar eski bog'lar yillar davomida hosil bermayapti. Hanuzgacha "mahsulot yetishtirish – xarid qilish – saqlash va qayta ishlash – eksport" zanjirini tashkil etadigan kooperatsiya tizimi joriy qilinmagan. **Sh.Mirziyoev.**

Meva-sabzavotchilik sohasini iqtisodiy tomondan o'sishi mavjud ichki resurslardan foydalanishni yanada kengaytirish hisobiga bo'lishi kerak emas, balki mahsulotlarni sifat jihatidan zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh ishlab chiqarish kooperatsiyasi va klasterlar tizimini joriy etish hisobiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Kooperatsiya to'g'risida»gi Qonuni. – T.: - Xalk so'zi, 1991.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi «Mevasabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-3709-son Farmoni. - T.: 2006 y.
- 4.“2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.03.2019, ID-2722.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

3. Kulikov I.M., Vorobev V.F., Xromenko V.V. i drugie. Osnovnye napravleniya innovatsionnogo razvitiya sadovodstva i pitomnikovodstva v Rossii: - Moskva: FGBNU "Rosinformagrotex", 2017.-132s. <http://agroportal24.ru/plodovodstvo/1672-osnovnye-tipy-sadov-chast-2.html>.
4. Lesnikova G. Sady intensivnogo tipa s tochki zreniya ekonomiki. - «Agrarnaya Kuban» 06 dekabrya 2012 g. <https://agrosputnik.ru/index.php/rastenivodstvo/661-sady-intensivnogo-tipa>.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

7. O'zbekiston qishloq xo'jaligi statistik to'plami. -T. - 2020 yil, 64-65 betlar.
8. Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Chinese_garden.
10. "Intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish".Maqola/ Olimjonova G. M. 2023y.6 b.
11. G.M.Olimjonova & Juraboyev M. (2023). Agriculture development in our country. International Conference On Higher Education Teaching,1(3), 26–30. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/de/article/view/490>
12. "Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences".G.M.Olimjonova.Maqola.2022y.8 b.www.interonconf.org
13. "Fermer xo'jaligida meva yetishtirish bo'yicha xorij tajribalarining ahamiyati".G.M.Olimjonova.Maqola.2022y.8 b. www.miastoprzyzlosci.com.